

O'ZBEKISTONNING FRONT ARSENALIGA AYLANTIRILISHI

Oydinova Iroda Nu'monovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
2-kurs magistranti*

Ma'lumki, 1939-yil 1-sentabrida Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi hamda 1941-yil 22-iyul kuni SSSRga hujum qilishi bilan Ikkinchı jahon urushi boshlandi. Urushning boshlanishi sovet mamlakati xalq xo‘jaligini front ehtiyojlarini ta’minlash uchun qayta qurishni talab etdi. Moddiy, moliyaviy va mehnat imkoniyatlarini urush manfaatlariga buysundirish, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni keskin oshirish kabi masalalar asosiy va kechiktirib bo‘lmaydigan hamda juda qisqa muddatda bajarilishi zarur vazifalar hisoblanardi. Shu yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishga qaratilgan dastlabki amaliy harakat 1941-yil 30-iyunda qabul qilingan “1941-yil 3-choragida xalq xo‘jaligini umumiylashtirish”da namoyon bo‘ldi. Rejaga asosan tinch davrga nisbatan quroylarog‘ ishlab chiqarilishi 26 foiz oshirildi¹. Temir yo‘llarda harbiy yuklar, ko‘mir, yoqilgi, metallar va g‘alladan tashqari boshqa yuklarning tashilish hajmi kamaytirildi. Rejada boshqa chora-tadbirlar ham belgilangan bo‘lsa-da, keyingi voqealar rivoji ularning yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Harbiy sanoatni jonlantirishda SSSRning sharqiy hududlariga, jumladan, O‘zbekistonga katta e’tibor berildi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning sanoat korxonalarini harbiy izga moslab qayta qurish va mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tkazish lozim edi. Chegaralangan vaqt ichida bunday katta ko‘lamdagi ishni amalga oshirish katta kuch va tashabbusni talab etdi.

Harbiy sanoat iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar evaziga kuchaytirildi. Tinch vaqtda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqargan korxonalar turli harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Shuning uchun xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish kamaygan bo'lsa-da, umuman, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishda kamayish keskin bo'lindi. Barcha xomashyo va moddiy resurslar ishlab chiqarish imkoniyatlari harbiy sanoat foydasiga qayta taqsimlandi.

Kadrlarning keskin sur'atda tanqisligi, sanoat xomashyosi, yoqilg'i, dastgohlar, asboblar nihoyatda yetishmasligiga qaramay, 1941-yil dekabrga kelib oq, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona mudofaa mahsulotlari bera boshladi². Toshkent qishloq mashinasozligi zavodi urushning birinchi xafalaridan boshlab, harbiy mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. 1941-yil oxiriga kelib zavod

¹ Вознесенский Н. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. Москва: Госполитиздат, 1948. - С. 37.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. - Б. 440.

harbiy mahsulot ishlab chiqarish rejalarini 240 foizga bajardi³. Front ehtiyojlari birinchi o'ringa qo'yilgan holda, harbiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga boshqa korxonalardan kadrlar va texnika jalg qilingan.

Ikkinci jahon urushi yillarida O'zbekistonning ko'plab boshqa korxonalari ham harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Ba'zi hollarda harbiy mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'shimcha korpus yoki sex qurishga to'g'ri kelardi. Masalan, "Kolxoznik" nomli zavodda harbiy mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'shimcha ikkita sex qurishga to'g'ri keldi. Rejalar muddati tig'iz belgilanganligi uchun ishchilar kuniga 17 soatdan ishlashga majbur bo'ldilar. Zavod rahbariyatining tashabbusi va ishchilarning og'ir mehnati tufayli 1941-yil noyabrdan zavod qurol-yarog' ishlab chiqara boshladi⁴.

Frontga ketganlarning o'rmini to'ldirish, evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda uy bekalari, o'qituvchi va olimlar, xizmatchilar va kolxozchilar, talaba va o'qituvchi yoshlar ham mehnat qildilar. Minglab yigit-qizlar sanoat korxonalari, transport va boshqa sohalarga kelib o'z otalari va akalarinnng o'rmini bosdilar. Ma'lumotlarga ko'ra, urush yillarida respublikadagi fabrika-zavod, sovxozi ishchilari va kolxozchilarning qariyb 70 foizini yoshlar tashkil etardi⁵.

Harbiy korxonalarda 13-14 yoshli qizlar ham 12 soatlab og'ir ishlashga majbur edilar. 1928-yilda tug'ilgan va urush yillarida Toshkentga evakuatsiya qilingan "Krasniy Aksay" zavodida ishlagan Klavdiya Iosifovna shunday eslaydi: "Zavodga borganimda kadrlar bo'limi oynasiga bo'yim yetmay, oyog'im tagiga tosh qo'yib gaplashganman. Ishga olishlarini iltimos qilsam, zambil ko'tarishga ishga olishgan. Mina, bomba tayyorlashda shishka degan modda bo'lardi. Ularning yaroqsiz bo'lganlarini oyoq bilan ezib, keyin tashir edik. Juda og'ir bo'lardi. Ko'rganlar shunaqa og'ir narsalarini ko'tarsang, tug'olmay qolasan deyishardi. Xudoga shukur, uch o'g'il ko'rdim"⁶.

Albatta, bunday tadbirlar yuqori partiya organlarining qat'iy siquvi, zo'ravonlikka asoslangan majburlashlari tufayli amalga oshirilganligini aytish joiz. Fikrimiz tasdig'i o'laroq, 1942-yil 7-martda VKP(b) MKning "8 mart - xalqaro kommunistik kun haqida"gi qarorida "Na shahar, na qishloqda biron-bir ayol ijtimoiy foydali mehnatga jalb etilmasdan qolmasligi kerak"⁷, deb yozilgan edi. Urushning so'nggi yillarida ham xotin-qizlarning sanoat ishlab chiqarishi

³ Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. - Самарканд: Изд. СамГУ, 2006. Часть II-С.

⁴ Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Том 1. - С. 110.

⁵ Содд ов О., Кодиров Р., Хабибуллина Е. Узбекистон комсомолининг Улуг Ватан уруши йилларида саноатни юксалтиришга кушган х.иссаси. - Тошкент: «Билим» жамияти, 1975.- Б . 4

⁶ Устная история в Узбекистане: теория и практика. Сборник материалов конференции. -Ташкент, 2011.Вып. I. - С . 174.

⁷ «Правда», 7 марта 1942 г

va transport sohasidagi soni oshib bordi. Agar, 1940 yilda paxta tozalash sanoatida xotin-qizlarni jalg etish 30 foizdan oshmagan bo'lsa, 1945-yilda bu ko'rsatkich 70 foizni tashkil etdi. Oziq-ovqat sanoatida ayollar miqdori 43 foizdan 62 foizga o'sdi, temir yo'1 transportidagi xizmatda ayollar soni 17 foizga ortib, 3 barobarga ko'paydi, parovoz o't yoquvchilari 26 foizga, parovoz ta'miri slesarlari 39 foizga oshdi⁸.

Ishchilarda yetarli malaka va texnikaning yetishmasligi sababli hamma korxonalar ham harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni eplay olmaganlar. Masalan, SSSR Yer ishlari xalq komissarligining harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan 30 ta korxonasidan 21 tasi umuman kerakli asbob-uskunaga ega emasdi⁹. O'zbekistonda ham barcha korxonalar ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli harbiy izga o'tkaza olmadi, ba'zi korxonalar esa harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya olmadi. Rejalar xato tuzilganligi va texnikadan noto'g'ri foydalanish tufayli Markazga qarashli xalq komissarliklari qaramog'idiagi korxonalar harbiy ishlab chiqarish rejalarini iyulda - 66,9 foiz, avgustda - 31,8 foiz, sentabrda - 50 foizga bajardilar¹⁰.

Rejalarning bajarilmasligiga ishchi kuchining, ayniqsa, malakali kadrlar va ishlab chiqarish vositalarining yetishmasligi katta ta'sir o'tkazdi. Frontga ketganlarning o'rmini egallagan malakasiz ishchilarga yangi texnikani egallah uchun vaqt zarur edi. Ishchilar malakasining oshishi, korxonalar texnika va texnologiyalarining harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashishi bilan vaziyat yaxshilana boshladi. 1941-yil oktabrda respublika korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 51 foizi harbiy buyurtmalar asosida ishlab chiqarildi¹¹. 1941-yil noyabr oyida Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan 137 ta korxonadan 63 tasi to'liq yoki qisman harbiy mahsulot ishlab chiqarishga o'tdi¹².

Turli qiyinchiliklarga qaramay, birinchi navbatda, o'zbekistonlik ishchilar va ko'chirilgan mutaxassislar mehnati tufayli korxonalar tezlikda joylashtirilib, mahsulot bera boshladi. 1942-yil yanvarda Moskvadan ko'chirilgan Chkalov aviatsiya zavodi birinchi mahsulotini berdi. Korborund zavodi esa rejaga nisbatan 5-6 marta tezroq ishga tushirildi¹³. Toshkentga Ukrainianing Zaporoj viloyatidan evakuatsiya qilingan korborund zavodida ishlab chiqarish quvvatlari tiklanibgina qolmasdan, qo'shimcha 2 ta sex barpo etildi. Zaporojda 30 oyda qurilgan zavod Toshkentda 5 oyda ishga tushirildi¹⁴.

⁸ Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941 - 1945 гг.). Том 3. Ташкент: «Фан», 1985. С. 89

⁹ Берт А. Россия в войне 1941-1945. Авторизованный перевод с английского. -Москва: «Воениздат», 1967. - С. 149.

¹⁰ Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941 - 1945 гг.). Том 1. - С. I 10

¹¹ Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941 - 1945 гг.). Том 1. - С. 112

¹² 5 Голованов А.А.. Сайдов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. - Самар12канд: Изд. СамГУ, 2006. Часть II. - С. 6.

¹³ Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне. Таш13кент: «Фан», 1975. - С. 61.

¹⁴ 1 Зинич М.С. Трудовой подвиг рабочего класса в 1941-1945 гг. (По материалам отраслей машиностроения). - Москва: «Наука», 1984. -- С. 42.

1942-yilda partiya va davlat organlari tomonidan yengil sanoat korxonalarini ishlab chiqarish rejali ancha ko‘paytirildi. Bu topshiriq O‘zbekistonga ko‘chirib i keltirilgan barcha korxonalarning to‘la quvvatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan edi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi tegishli moddiy-texnika bazasini vujudga keltirish va tarmoqni xomashyo, yoqilg‘i, elektr energiya bilan ta’minlashni talab qildi. O‘zbekiston yengil sanoati urushgacha bo‘lgan davrda yordamchi ishlab chiqarish quvvatiga umuman ega emas edi. Poyabzal qoliplari, ximikatlar, buyoqlar va hokazolarning asosiy qismi tashqaridan keltirilardi. Urush boshlangach ularning keltirilishi to‘xtab qoldi. Shuning uchun zarur materiallar ishlab chiqarishni O‘zbekistonda tashkil etishga harakat qilindi. 1943-yildan ko‘chirilgan korxonalarning to‘liq ishga tushirilishi va ta’mnot bo‘yicha ba’zi muammolarning hal etilishi bilan yengil sanoat quvvatlari tiklana boshladи. Ammo urushning oxirgi yilida asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 1941-yil darajasining yarmiga ham ko‘tarila olmadi. 1941 - 1945 yillarda yengil sanoat mahsulotlaridan faqatgina shoyi mato ishlab chiqarish ortdi.

O‘zbekistonda 1940-yilda 4534 ming metr shoyi mato ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1943-yilda 4825 ming metr va 1945-yilda 4725 ming metrni tashkil etdi¹⁵. Shoyi matolar ishlab chiqarishning ko‘payishi harbiy buyurtmalar bilan bog‘lik edi.

Ikkinci jahon urushi yillari O‘zbekiston yengil sanoatiga faqatgina salbiy baho berish noto‘g‘ri bo‘ladi. Sohada unga bog‘lik bo‘lmagan kamchiliklar ta’sirida ishlab chiqarish va mehnat unumdorligining pasayishi kuzatildi. O‘zbekiston yengil sanoat ishchilari qiyin sharoitlarda fidokorona mehnat qildilar. Shuningdek, ular ko‘plab ixtirolar va takliflar bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirdilar.

Qishloq xo‘jaligidagi yuqotishlarning og‘irligini O‘zbekiston kabi frontorti hududlari ko‘tarishi kerak edi. 1941-yil 17-noyabrda qabul kilingan VKP(b) MK va SSSR Ministrlar Sovetining qo‘shma qarorida Ittifoq miqyosida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalar belgilab berildi. Qarorda frontni oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlashda, don, texnika ekinlari va sabzavotlar hosilini ko‘paytirishda Ural, Sibir, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning alohida ahamiyati ta’kidlab o‘tildi¹⁶.

Ma’lumki, urushdan oldingi yillarda g‘alla va bir qancha boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, asosan, Rossiya, Ukraina va Belorussiyada yetishtirilgan. Harbiy harakatlar natijasida ushbu hududlarning bosib olinishi ba’zi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini keskin kamaytirdi. Masalan, urushgacha Ittifoq

¹⁵ 3 Народное хозяйство СССР в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. Статистический сборник. - Москва: Информационно-издательский центр, 1990. - С. 77.

¹⁶ 1 История Великой Отечественной войны Советского Союза 1941-1945 гг. - Москва: «Воениздат», 1961.- С . 168

bo‘yicha yetishtiriladigan shakarning 87 foizi Ukraina SSR hissasiga to‘gri kelar edi¹⁷. 1942-yilda Ukrainianing bosib olinishi va RSFSR da qand lavlagi hosilining 4 barobar qisqarishi shakar bilan ta’midot masalasini qiyinlashtirdi. Yo‘qotilgan qand lavlagi maydonlarini sharqiy hududlar, jumladan, O‘zbekistonda tiklash ishlari boshlab yuborildi.

Muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridan biri chorvachilik edi. Lekin bu tarmoq jamoalashtirish va quloqlashtirish yillarida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xatolar tufayli hali o‘zini unglab olishga ulgurmagan edi. Urush boshlanishi tufayli ahvol yanada qiyinlashdi. Yuzaga kelgan murakkab sharoitlarga qaramasdan, 1941-yilda O‘zbekistonda davlatga go‘sht topshirish rejasi 108,3 foizga bajarildi¹⁸.

O‘zbekiston chorvachiligi armiyani go‘sht bilan ta’minlashda barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Masalan, SSSR tarkibiga kirgan respublikalar ichida faqatgina O‘zbekistonda 1940-yilga nisbatan 1942-yilda go‘sht ishlab chiqarishda o‘sishga erishildi (81 ming tonnadan 97 ming tonnagacha)¹⁹. Shuningdek, 1942-yil 23-noyabrda qizil armiyaning go‘sht fondi tuzilib, O‘zbekiston uchun uning ta’midot miqdori 7000 tonnani tashkil etdi²⁰. Chorvachilik xo‘jaliklari yetishtirgan mahsulotlarining ma’lum qismini go‘sht fondiga majburiy o‘tkazib borganlar. O‘zbekistonda go‘sht ishlab chiqarishning o‘sishi chorvaning ommaviy so‘yib yuborilishi bilan izohlanadi. Natijada urush yillarida respublikada chorva mollari soni keskin qisqarib ketdi. Masalan, 1941-1943 yillarda Farg‘ona oblastida qo‘y va echkilar 18,5 foizga, yirik qoramollar soni esa 10,8 foizga qisqardi²¹.

Urush yillari O‘zbekiston front va mamlakat ichkarisini nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shu bilan birga, sanoat mahsulotlari bilan ham ta’minlashdek mas’uliyatli vazifani amalga oshirdi. O‘zbekistonda urush yillarida 280 ta yangi korxona barpo etildi. Respublikaning sanoat potensiali 1945-yilga kelib 1940-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘paydi. Neft qazib olish 4 baravardan ziyod, metall ishslash tarmoqlari mahsulotlari 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30 baravardan ko‘proq, po‘lat va prokat eritish 2 baravar, elektr energiya ishlab chiqarish 2,42 marta ortdi²².

Urush yillarida O‘zbekistonning ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-moliyaviy resurslar va ishchi kuchi harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratildi. Barcha sanoat korxonalari ham harbiy mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashmagan bo‘lsa-da, respublikada turli qurol-yarog‘, harbiy texnika va ularga ehtiyoj qismlarning ishlab

¹⁷ Народное хозяйство СССР в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. Статистический сборник. ... - С. 96

¹⁸ Узбекистон МДА, Р-839-фонд, 32-руйхат, 3012-иш. 5-варак.

¹⁹ Народное хозяйство СССР в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. Статистический сборник. ... - С. 11

²⁰ Узбекистон МДА, Р-839-фонд, 32-руйхат, 3253-иш , 34-варак

²¹ Голованов А. А., Сайдов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. - С. 33.

²² Узбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Узбекистон совет мустамлакачилиги даври 22 да .- Б . 445.

chiqarilishi o'sib bordi. Harbiy ishlab chiqarishning o'sishi tufayli urushning dastlabki oylarida yo'qotilgan tank, artilleriya, samolyotlar o'rnini to'ldirish va strategik zahiralarni ko'paytirish imkonini yaratildi.

Qisqa muddat ichida respublikada 280 ta yangi korxona qurilib, ishgaga tushirildi. Sanoatda yangi tarmoqlar – aviasozlik, stanoksozlik, og'ir sanoat, rangli va qora metallurgiya va boshqa yo'nalishlar yuzaga keldi. 1941-yil oxiriga kelib 300 dan ortiq korxonalarda harbiy mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston front uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni yetkazib beradigan muhim tayanch markazlardan biriga aylandi. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etildi. O'zbekistonga yirik sanoat korxonalarining ko'chirib keltirilishi respublikamizni SSSRning Sovet Armiyasining qudratli harbiy mudofaa arsenaliga aylantiribgina qolmay, mamlakat iqtisodiy potentsialini yoppasiga kuchaytirishga, sanoat mahsulotlarining o'sishiga ham olib keldi.